

MUSTAQILLIK VA DIN

*DTPI pedagogiga fakultati
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
talabalari Turdiyeva*

**Dilorom Toshpo'latovna
Xo'janova Surayyo Baxtiyor qizi
Hakimova Yulduz Shuxrat qizi**

Annotatsiya: *“Biz muqadas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassmining ifodasi sifatida behat qadirlaymiz islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asil insoniy fazilatlarni asrab avaylashga da'vat etadi”. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida dinimizga berilgan e'tibor haqida so'z yuritiladi.*

Kali so'zlar: *Islom, din, mustaqillik, tinchlik, qadriyatlar, davlat, siyosat, sivilizatsiya*

O'zbekiston mustaqillikka erishgan ilk yillaridan diniy sohaga o'zbek xalqining milliy ma'naviyatining ajralmas qismi sifatida alohida e'tibor qaratildi. Mustaqillik yillarida dinning huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatida tutadigan o'rni va mavqei aniq belgilanib, bu sohada mustahkam qonunchilik poydevori yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida "diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar", degan demokratik tamoyil mustahkamlab qo'yilgan. Fuqarolar millati, irqi va dinidan kat'i nazar, teng huquqli ekanligi belgilanib, ularning vijdon erkinligi, urf-odatlar, milliy an'analari hurmat qilinishi kafolatlangan. Ushbu konstitusiyaviy qoida 1998 yil 1 may kuni qabul qilingan yangi tahrirdagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar t'yg'risida" gi qonunning 5-moddasida ham o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida so'nggi 3 yil davomida diniy bag'rikenglikni ta'minlash sohasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi: BMT



Bosh Assambleyasi 2018-yilning 12-dekabr oyida o'tkazilgan yalpi majlisda «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qildi. O'zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan hujjat loyihasi BMTning barcha a'zo davlatlari tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi. Mazkur rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi 2017-yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining Nyu-Yorkdagi 72-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surildi. O'zbekiston Islom akademiyasi va Toshkent Islom universiteti negizida O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi tashkil etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida Akademiya tarkibidagi malaka oshirish Markazi hududiy filiallari tashkil etildi. O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi huzurida “Ziyo” media-markazi tashkil etilib, u ajdodlarimizning diniy-ilmiy merosini keng targ'ib qilish, dinning haqiqiy insonparvarlik maqsadini hamda diniy-ma'rifiy hayotda sodir bo'layotgan yangiliklardan keng jamoatchilikni xabardor qilib borishni ta'minlovchi asosiy media-tuzilma hisoblanadi. O'zbekiston hukumatining Islomga nisbatan siyosati Shavkat Miromonovich Mirziyoyev davrida yangicha muhit kasb etdi. Uning qo'l ostida quyidagi choralar ko'rildi: 2017-yildan boshlab ayrim masjidlarda (shu jumladan, Toshkent masjidida) azon aytishga ruxsat berildi; Voyaga yetmaganlarga diniy marosimlarda ishtirok etishga ruxsat berildi; 2018-yilda O'zbekiston rasmiylari Hajga borish uchun kvotalar sonini oshirgan bo'lsa, 2018-yilda 7520 kishiga Hajga borishga ruxsat berildi. (Saudiya Arabistoni uch barobar kvota ajratgan). 1992-yildan 2016-yilgacha har yili 5200 kishiga O'zbekistondan chiqib ketishga ruxsat berilgan edi; Umra uchun cheklovlar olib tashlandi va narxlar tushdi; 2017-yil dekabrda Shavkat Mirziyoyev „diniy sabablarga ko'ra“ deb qamalgan 763 nafar mahbusni amnistiya qildi; Islom sivilizatsiyasi markazining tashkil etilish hamda Samarqandda Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, Toshkent Islom akademiyasini tuzish rejalandi. Qisqa muddat ichida O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohada malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha kompleks tizim yaratildi. Olimlarimizning boy merosini o'rganish va ommalashtirish maqsadida ilmiy tadqiqot markazlari faoliyat boshladi. Bunga misol sifatida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Mir Arab oliy madrasasi,



Hadis ilmi maktabi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarini keltirish mumkin. Imom Buxoriy yodgorlik majmuasida keng ko'lamli yangilash va obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ibragimov E. O'zbekistonda xristian konfessiyalari faoliyati va ularning diniy bag'rikenglik an'analari shakllanishida tutgan o'rni. – Tarix fan.nomz. ilm.dar... dissert. – T., 2010. 2. Xasanov A., Komilov N., Uvatov U., Azimov A., Rahimjonov D., Zohidov Q. Islom tarixi. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyotmatbaa birlashmasi, 2008. 3. Hasanboyev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafquraviy kurashning dolzarb yunalishlari. – Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. – 552-b 4. Hasanboyev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafquraviy kurashning dolzarb yunalishlari. – Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. – 552-b 5. Hasanboyev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafquraviy kurashning dolzarb yunalishlari. – Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. – 552-b

